



DAVLAT, HUQUQ HAMDA DAVLAT HUQUQI

Dalaboyeva Sohiba Anorboy qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti kursanti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-October 2023 yil

Ma'qullandi: 28-October 2023 yil

Nashr qilindi: 30-October 2023 yil

KEY WORDS

davlat, ijtimoiy tabaqalashuv, siyosiy tashkilot, suverenitet, nazariya, absolut, huquq, erkinlik tamoyili, tenglik tamoyili, adolat tamoyili, ijtimoiy munosabatlar, mehnat taqsimoti, jamiyat, xususiy mulk, davlat huquqi, ijtimoiy tuzum, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati organlari, saylov tizimi, konstitutsiyaviy huquq, davlat-huquqiy munosabatlar, davlat-huquqiy munosabat sub'yektlari, islohot.

ABSTRACT

Ushbu maqola orqali bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar hamda unda o'z aksini topgan davlat, huquq, davlat huquqi sohasidagi yangilanayotgan tizimini joriy qilishning ahamiyati yoritildi.

Davlatning vujudga kelishini oddiygina qilib quyidagicha tushunish mumkin. Davlatning vujudga kelishi uchun ijtimoiy tabaqalashuv vujudga kelgan. Ijtimoiy tabaqalashuv esa turli sinflarni vujudga keltirgan, ya'ni hukmron va qaram sinflarni. Dastlabki, qaram sinflarni vujudga kelishi uchun faqatgina moddiy ehtiyoj sabab bo'lgan. Ya'ni bir guruh odamlar turli xil yo'llar bilan ortiqcha mulk evaziga boyiy boshlaganlar va shu mulki orqali boshqa bir guruh odamlarni boshqara olganlar. Agarda tarixga nazar tashlasak, turli xil davlatlarning vujudga kelishidagi tabaqalashuv turli xil omillar asosida sodir bo'lgan.

Davlat tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, turli manbalarda bu so'zga turlicha ta'rif berilgan. Ayrim manbalarda davlat-bu ma'lum hududda yuqori hukmronlikka ega tashkilot deyilsa, ayrim manbalarda davlat-ko'pchilik odamlar birligidan iborat siyosiy tashkilot, davlat-o'zining suverenitetiga hududi va chegarasiga, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi maxsus boshqaruv apparatiga ega bo'lgan siyosiy hududiy tashkilot, davlat-siyosiy hokimiyat tashkiloti, davlat-bu jamiyatdan mustaqil tuzilma emas, balki muayyan makon va zamonda mavjud huquqiy tartibga solinadigan ijtimoiy xulq-atvorning aniq shakli.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov davlat tushunchasiga shunday ta'rif berganlar, ya'ni "Davlat-inson manfaatlari va huquqlari, tinch-totuv hayoti va kelajagini tashkil etish va himoyalash kabi ulug'vor maqsadlarga xizmat qiluvchi tashkilot."

Aytib o'tishimiz mumkinki, dunyoda hech bir fikr, hech bir nazariya absolut ya'ni mutloq to'g'ri deb bo'lmaydi. Davlat haqidagi qadimgi olimlar, faylasuf va huquqshunoslarning fikrlari haqida gapiradigan bo'lsak, arastu davlatga shunday ta'rif bergan: "davlat-aql, idrok, haqiqat, chiroy a umumiy huzr-halovat." T.Gobbs esa: "Davlat jahannamga teng, uning og'zidan olov chiqadi, burnidan tutun, nafasi ko'mirni kuydiradi, bo'ynida kuch bor va uning oldida daxshat ham yordam bera olmaydi," -degan fikrlarini aytib o'tganlar.

Huquq tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, huquq tushunchasi davlat tushunchasi bilan birga keladigan, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sanaladi. Huquq-bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, barcha uchun bajarilishi umummajburiy bo'lgan yurish-turish qoidalari yig'indisidir.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, unda davlat va huquqni vujudga kelishi haqida turli xil nazariyalar mavjud bo'lib, davlat va huquqni vujudga kelganligi qay tarzda bo'lgani haqida aniq bir tushuncha mavjud emas, lekin fikrlar xilma-xil. Masalan, davlatning yuzaga kelishiga olib kelga omillar va sabablar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mehnat qurollari va ishlab chiqaruvchi vositalarning takomillashuvi;
- yerik mehnat taqsimotining yuz berishi (chorvachilikdan dehqonchilikning, hunarmandchilikning ajralib chiqishi, savdogarlarning vujudga kelishi va boshqalar);
- mehnat unumdorligining o'sishi va ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi;
- ekologik muhit qulay mintaqalarda o'troq aholining vujudga kelishi va aholi soninig o'sib borishi;
- jamiyatda boshqaruvchi va boshqariluvchilarning vujudga kelishi;
- xususiy mulkning paydo bo'lishi;

Davlat huquqi- muayyan davlatning ijtimoiy tuzumi, davlat tuzilishi asoslari va davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishini, hamda saylov tizimini belgilovchi va tartibga solib turuvchi huquqiy normalar yig'indisi. "Davlat huquqi" atamasi bilan bir qatorda konstitutsiyaviy huquq atamasi qo'llanilib kelinmoqda, ularning predmeti va tadqiqot ob'yektlari bir xil bo'lganligi bois sinonim sifatida tushunmoq kerak. Bundan tashqari davlat huquqi uch ma'noda: huquq tarmog'i, fan va o'quv kursi sifatida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat huquqi — O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining yetakchi tarmog'i hisoblanadi; uning normalari davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy asoslarini, davlat hokimiyatini amalga oshirish hamda jamiyat, davlat va shaxs orasidagi munosabatlarni tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatadi, rivojlantiradi va huquqiy tartibga solib turadi. Shu bois davlat huquqining asosiy prinsiplari, qoidalari va normalari huquq tizimining boshqa tarmoqlari (jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik, fuqarolik-protsessual, ma'muriy, xo'jalik, mehnat huquqi va shu kabilar)ni belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi davlat huquqining bosh manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Davlat huquqi manbalarini Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, davlat-huquqiy mazmunga ega bo'lgan yoki davlat-huquqiy

munosabatlarni tartibga soladigan normalarni o'z ichiga olgan konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, Oliy Majlis reglanmenti, nizomlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mahalliy hokimiyatning qarorlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan bitim va shartnomalari tashkil etishi mumkin. Jamiyatdagi munosabatlarni davlat huquqi normalari bilan tartibga solish natijasida kelib chiqadigan munosabatlarni davlat-huquqiy munosabatlar deb ataladi. Davlat-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari davlat-huquqiy munosabat sub'yektlari deb ataladi. O'zbekiston Respublikasida davlat-huquqiy munosabatlarning asosiy sub'yektlari quyidagilardan iborat:

- davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi;
- O'zbekiston Respublikasining xalqi;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- O'zbekiston Respublikasining davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, sudlov organlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, barcha pog'onadagi xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar);
- deputatlar va ularning uyushmalari;
- saylov komissiyalari;
- jamoat birlashmalari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqalar.

O'zbekistonda davlat huquqining rivojlanishi asosan XX asrning 20-yillaridan boshlandi va mustaqillik yillarida keng qamrov oldi.

Hozirgi kunda ham bu sohaga keng ahamiyat bergan va atroflicha yondashilgan holda bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jumladan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan konstitutsiyamizning 19-moddasida quyidagicha keltirilgan ya'ni: "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas." 2023-yil 30- aprelda esa Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi va uning 20-moddasida bu sohaga quyidagicha o'zgartirish kiritildi ya'ni: "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi." Davlat-huquqiy munosabatlar ham shu kungacha bir qancha jarayonlardan o'tgan bo'lib, bugungi kundagi amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi kerak hisoblangan islohotlar uni

yanada takomillashtirish maqsadida qilingan bo'lib, yurtimiz ravnaqiga xissa qo'shishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 08.12.1992y
2. O'zbekiston Respublikasining yangilangan tahrirdagi Konstitutsiyasi 08.12.1992y
3. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonun" 02.09.1993
4. <https://lex.uz>
5. кизи Наркулова И. Р. и др. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.
6. Наркулова И. Р. К. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.
7. Narkulova I. R. Verbs of perception in Russian and the ways of their teaching to cadets of higher military educational institutions //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 8.
8. Ёкубова И. Р. Формирование профессиональной компетентности тюркоязычных студентов при обучении русскому языку как иностранному (на примере авторской интерактивной программы «Русский язык для военных юристов») //II Международный конгресс «Языковая политика стран Содружества Независимых Государств (СНГ)». – 2021. – С. 207-209.
9. Абдухафизов, Сардор Нейматович, Наркулова, Индира Рустам Кизи СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ ГЛАГОЛАМ ВОСПРИЯТИЯ В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ // ORIENSS. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-obucheniya-glagolam-vospriyatiya-v-vysshih-voennyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniyah> (дата обращения: 07.04.2023).
10. . Наркулова И. Р. К. СВОЙСТВА ГЛАГОЛОВ АКТИВНОГО ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 421-423.
11. . Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O'zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 895-899.
12. . Abdurashidovich M. K., Kizi Y. I. R. Developing self-study competence of pedagogies in English languages by computer technologies //Наука и образование сегодня. – 2019. – №. 11 (46). – С. 45-48.
13. Наркулова И. Р. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛНГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 185-193.
14. НАРКУЛОВА И. THE USE OF COMPUTER LINGUODIDACTICS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //Social sciences.
15. . Narkulova I. R. PROJECT TECHNOLOGY AS A MEANS OF DEVELOPING THE INDIVIDUALITY OF CADETS //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2023. – Т. 3. – №. 1.

16. . Наркулова И. Р. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ВАРЬИРОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ СЛОВАРЯ СИ ОЖЕГОВА) //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 7-9.
17. . Астанов Ш. Ш. РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СТРАН СНГ //ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ. – С. 136.
18. . Ашуров Р. Р. ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ ВОЕННОГО ЮРИСТА Ёриев Озодбек Ойбек ўғли //ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ. – С. 34.
19. . АМАНБАЕВ Ж. А., НАРКУЛОВА И. Р. К. Технология организации самостоятельной работы в высших военных образовательных заведениях Республики Узбекистан //МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый". – 2022. – №. 23. – С. 136-139.
20. . Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.
21. . Закирова А. О., Наркулова И. Р. Қ. Роль русского языка в работе сотрудников органов внутренних дел //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 737-740.
22. . Наркулов А. К. У. Роль правоохранительных органов и общественных организаций в сфере обеспечения общественного порядка (на примере США) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1615-1620.

INNOVATIVE
ACADEMY